

**O'QITUVCHI VA TALABALARNING OLIY TA'LIM MUASSASASIDAGI
O'QUV JARAYONINING YANGI NATIJALARINI BAHOLASHGA
TAYYORLIGINI O'RGANISH NATIJALARI**

O'rinboyeva Mubinabonu Iqboljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va talabalarning oliy ta'lim muassasidagi o'quv jarayonining yangi natijalarini baholashga tayyorgarligini o'rganish bo'yicha fikr-muloxazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tahlil, baholash, yangi innovatsion texnologiyalar, obyekt, sub'ekt.

Ilmiy manbalar va o'quv amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonidagi har qanday yangilikning muvaffaqiyati, avvalambor, pedagogik jarayonning asosiy sub'ektlari – o'qituvchilar va talabalarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonining yangi natijalarini baholash mexanizmlarini loyihalashning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganish jarayonida yangi o'quv sharoitida talabalarning bilish pozitsiyasining dinamikasini, ularning bilish faoliyati natijalarini baholashdan qoniqish darajasini aniqlash juda muhim bo'lib hisoblanadi. Darhaqiqat, oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining yangi natijalarini baholash tartibiga zamonaviy yondashish uchun o'qituvchilar va talabalar tomonidan ushbu faoliyatga ma'lum darajada tayyorlik talab etiladi. Shu sababli biz o'qituvchilarning o'quv jarayoni natijalarini baholashning mavjud tizimi hamda o'qituvchilar va talabalarning pozitsiyalari bir-biriga qanday mos kelishi haqidagi fikr bilan qiziqdik. Bundan tashqari, bizning oliy ta'lim muassasamizdagi vaziyat boshqa oliy ta'lim muassasalaridagi hamkasblarimizning fikrlari bilan qanday mos kelishini tushunish ham biz uchun muhim bo'lib hisoblandi. Tadqiqot davomida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,



Andijon politexnika instituti va Qarshi muhandislik iqtisodiyoti instituti texnologik ta'limyo'nalishlarida dars berayotgan turli kafedra o'qituvchilarining o'quv jarayoni natijalarini baholashning shakllari va texnologiyalari muammolari bo'yicha fikrlari, shuningdek ularning DTS ni yangilash bilan bog'liq baholash mexanizmlari va protseduralarga munosabati o'rganildi.

So'rovda yuqorida qayd etilgan oliy ta'lim muassasalaridan jami 57 professor o'qituvchi ishtirok etdi. Tadqiqot texnologik ta'limyo'nalishlarida olib borildi. Deyarli barcha o'qituvchilar DTS tarkibi bilan yaxshi tanishligini ta'kidlashgan.

So'rov natijalari parametrik bo'lmagan korrelyatsion tahlil orqali qayta ishlandi. Bu oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining o'quv jarayoni natijalarini baholashning zamonaviy vositalaridan qay darajada foydalanishi to'g'risida baho olishga imkon berdi. Biz o'qituvchilarning anketa savollariga bergan javoblarining validlik darajasini baholadik. Korrelyatsion tahlil o'qituvchilarning bir-birlaridan qay darajada farq qilishini va o'qitilayotgan fanlarning yosh va turlariga qarab taqsimlanishi so'rov natijalariga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ish stajiham ahamiyatlilik (0,832), ham so'rov natijalariga (0.734) ta'sir qilish nuqtai nazaridan maksimal bog'liqlikka ega. Undan keyingi o'rinlarni esa lavozim - (0.622) va o'qitiladigan fanlar - (0,520) lar tashkil etdi. Asosiy respondentlar dotsent (47%) va assistent (27%) lavozimlariga ega bo'lgan o'qituvchilar edi, shuning uchun ham so'rov natijalariga boshqa toifadagi xodimlarning ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib hisoblanadi. Anketa so'rovi shuni ko'rsatdiki, egallab turgan lavozim darajasining ko'tarilishi respondentlarning javoblari sifatiga ijobiy ta'sir qiladi va o'z kasbiy faoliyatida kompetentli yondashuvdan foydalanishga tayyor ekanliklarini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari pedagogik mahoratining aniqlangan xususiyatlari kompetentli yondashuvni amalga oshirishga psixologik va uslubiy tayyorgarlikda muammolar va xatarlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu o'qituvchilarning psixologik va pedagogik bilimlarining eskirganligi, tizimli-faoliyatli yondoshuv nuqtai nazaridan talabalarning bilish faolligini faollashtirishni ta'minlaydigan



kompetentsiyalarning etarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. O'qituvchilarning savollarga bergan javoblariga asoslanib, biz natijalarni lavozimlar, ish staji va o'qitiladigan fanlar bo'yicha umumlashtirdik. O'qish natijalarini baholashda testlarning samaradorligi bo'yicha reyting natijalarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan ko'pchilik o'qituvchilar talabalar bilimni nazorat qilish va ulardan o'z kasbiy faoliyatlarida faol foydalanish vositasi sifatida test topshiriqlari to'g'risida yetarlicha bilimga ega ekanliklarini ko'rsatdilar.

O'qituvchilarning ball-reyting tizimi bo'yicha savollarga bergan javoblari natijalari quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. O'qituvchilar ball-reyting tizimining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat hisoblaydilar:

- 1) fan bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish sifatini baholashning ob'ektivligini oshirish – 82%;
- 2) talabalarning darslarni muntazam ravishda tayyorlashga bo'lgan qiziqishini shakllantirish – 80%;
- 3) talabalarning o'qish natijalari uchun javobgarligini oshirish – 82%;
- 4) fan doirasida o'quv faoliyati turlarini tizimlashtirish – 80%.

O'qituvchilarning kasbiy faoliyatda portfoliodan foydalanishga bo'lgan munosabatini tahlil qilganda, ishtirokchilarning 71% i talabalarning o'quv va ijtimoiy yutuqlarini baholashda portfoliodan foydalanishning pedagogik samaradorligini ta'kidlashgan va ularning 57% portfolio talabalarning shaxsiy va kasbiy o'sishini baholashga yordam beradi deb hisoblashgan.

So'rov natijalari bo'yicha o'qituvchilarning oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari mazmuni va uni amalga oshirish texnologiyalari bilan tanish ekanlik natijalari tahlili esa ko'plab o'qituvchilarning o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakllari va uning natijalarini baholash texnologiyalariga sodiqligini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar oliy ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonini yangilashda nazariy metodik ta'minotini kontseptuallashtirish va eksperimental ishlarni olib uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonining yangi natijalarini baholash mexanizmini loyihalashni nazariy jihatdan asoslashni tahrirlash uchun o'qituvchilar va talabalarning fikrlari hamda munosabatlarini zamonaviy o'quv jarayonining turli shakllari va texnologiyalari hamda uning natijalarini baholash mexanizmlari bilan taqqoslash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, so'rovda qayd etilgan oliy ta'lim muassasalaridan 321 ta talaba ishtirok etdi. Anketada 20 ta savol mavjud bo'lib, talabalarning bu savollarga bergan javoblari ma'lum darajada ishonch bilan talabani oliy ta'lim muassasasiga etaklagan motivlarni, uning o'quv jarayonidan kutayotgan natijalarini va bu taxminlar ta'limiy reallikaga qanday mos kelishini aniqlashga imkon beradi. Bundan tashqari, biz talabalarning bilish faoliyati natijalarini baholash va o'z-o'zini baholashning turli shakllari va usullariga bo'lgan munosabatini hamda ushbu baholash mexanizmlarining talabalarning akademik muvaffaqiyatlariga, ularning shaxsiy va kasbiy o'sishiga ta'sir qilish darajasini aniqladik.

Anketa so'rovidagi birinchi savolga bergan javoblarda talabalarining 45% bolalar bilan ishlash istagini, 25% i esa oliy ta'lim muassasalarida ma'lum bir ilmiy fanga qiziqishini, 3% o'rta maxsus ma'lumotga egaligini va yuqori darajadagi mutaxassis bo'lishga qaror qilganligini ta'kilaganlar. Taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'rovda ishtirok etgan talabalarining aksariyati o'quv muassasasini tanlashni bolalar bilan ishlash istagi borligi va ma'lum bir fanga qiziqishi bilan izohlashgan.

Ikkinchi savolga javob shuni ko'rsatdiki, talabalarning 80% dan ortig'i oliy ta'lim muassasidan o'qishning qiziqarli va faol shakllari hamda usullarini, kasbiy martaba boshlanishini, ijtimoiy faol talabalik hayotini kutayotganligini ta'kidlashgan. Talabalarning 58% ularning umidlari to'liq bajarilgan deb hisoblashadi, yana 27% asosan oliy ta'lim muassasasi o'quv muhitidagi mavqeidan qoniqishadi, talabalarning 10% talabalik hayotining individual qismlaridan qoniqmaydi (kimningdir hamkurslari bilan, kimningdir o'qituvchilar bilan aloqasi shakllanmagan, ba'zilar o'quv jarayonini tashkil etishdan qoniqishmaydi, ya'ni noqulay dars jadvali va boshqalar). 5%



talabalar esa ularning kutayotganlari haqiqatga to'g'ri kelmayotganligini ta'kidlashgangan, ammo nima uchun shundayligini asoslamagan.

“Siz oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?” degan savolga 80% dan ko'prog'i mustaqil ishlarni tashkil etishda tashkiliy tomondan (topshiriqlarni bajarishdagi qiyinchiliklar – 22%, adabiyot va boshqa ma'lumot manbalarini izlashda – 21%) qiyinchiliklar mavjudligini qayd etishgan. Bundan tashqari, talabalar muloqotda, o'z pozitsiyalarini bayon etishda qiyinchiliklar mavjudligini ta'kidlashgan, bu esa o'z navbatida talabalarda kommunikativ kompetentsiya va tanqidiy fikrlashning etarli darajada shakllanmaganligidan dalolat beradi [1].

Aksariyat talabalar o'rta maktab talabasi va oliy ta'lim muassasasi talabasining bilish pozitsiyasidagi farqlarni tushunishadi va talabani yanada faol va mustaqil deb hisoblaydilar. Biroq, oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish shakllarining ahamiyatini baholashda, ular avvallari oliy ta'lim muassasasida yangi va qiziqarli bo'lgan barcha narsalarga qiziqish bildirganliklariga qaramay, maktabda odatlangan an'anaviy tashkiliy shakllariga ustunlik berishgan. Talabalarning 20% gina oliy ta'lim muassasasida ilmiy to'garaklar, muammoli guruhlar, ijodiy topshiriqlarni mustaqil bajarish va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni oliy ta'lim muassasasidagi bilish faoliyatning eng samarali va qiziqarli shakllari deb hisoblaganlar. Talabalar asosan o'qituvchining zamonaviy oliy ta'lim muassasasi hayotidagi o'rni va uning talabalar bilan o'zaro munosabati mohiyatini to'g'ri tushunishlari quvonarli hol. Shunday qilib, respondentlarning 28% o'qituvchi talabalar bilan faol aloqada bo'lib, mustaqil ravishda ma'lumot izlashda ularga hamroh bo'lishi kerak, deb hisoblashadi; 18% i esa o'qituvchini talabalarning mustaqil bilish faoliyati jarayonining tashkilotchisi va maslahatchisi bo'lishi kerakligini; 19% i esa o'qituvchilar talabalarning individual imkoniyatlari va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishlari, 11% talabalar esa o'qituvchi ular uchun bilish ma'lumotlarning asosiy manbai bo'lishi kerak deb hisoblashadi.



Talabalarning mustaqil ishlarining zamonaviy oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi o'rni va rolini anglagan holda, respondentlar o'zlari uchun eng qiziqarli va samarali topshiriqlar deb quyidagilarni hisoblaydilar: loyihalarni amalga oshirish – 23%; tajriba sinov ishlarda qatnashish (maktabda, o'quv laboratoriyasida va boshqalar) – 19%; ijodiy topshiriqlarni bajarish (insholar, annotatsiyalar, sharhlar, topshiriqlar tuzish, pedagogik vaziyatni tahlil qilish va boshqalar) – 14%. Respondentlarning atigi 11% oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarining veb-saytlarida joylashtirilgan elektron resurslaridan foydalanishlarini, 13% ilmiy va ommabop ilmiy jurnallar va Internetdagi boshqa nashrlarning elektron variantlarini o'qiganliklarini ta'kidlashgan. Talabalar, o'qituvchilar singari, o'quv jarayoniga kompetentli yondashuvning kiritilishini ijobiy baholaydilar va umuman uning ma'nosini tushunadilar. Buni quyidagi topshiriqni bajarganliklari ham tasdiqlaydi: “Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti talablariga muvofiq oliy ta'lim muassasasidagi asosiy o'quv dasturini o'zlashtirish natijalarini baholash predmeti bo'lib kompetentsiya hisoblanadi; 5 balli shkala bo'yicha kompetentsiya tarkibida uning quyidagi tarkibiy qismlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini baholang. “O'quv jarayoni natijasi sifatida talabalar kompetetsiyaning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilarga ajratdilar: talabaning kasb va hayotdagi yo'nalishi – 4,3; shaxsiy pozitsiyaning mavjudligi – 4,3; muammoni hal qilish uchun o'rganilgan ilmiy bilimlarni aniq vaziyatda amalda qo'llash qobiliyati – 4,2; amaliyotda harakat qilish qobiliyati – 4,2; talabalarning taklif qilingan vaziyat tahlilini tushunishi – 4,1; bilim – 4,1.

Ko'pchilik respondent-talabalarning fikriga ko'ra, mavjud o'quv jarayoni natijalarini baholashning mavjud tizimi talabalarning akademik muvaffaqiyati to'g'risida ob'ektiv ma'lumot olishga imkon beradi. Ular bilimlarni nazorat qilishning an'anaviy shakllari (test, imtihon) bilan ijobiy bog'liq, ammo shu bilan birga, seminar va amaliy mashg'ulotlardagi joriy baholashning ilmiy yutuqlari va shaxsiy o'sishini eng ob'ektiv baholaydigan ahamiyati katta. O'quv yutug'lariga quyidagilar kiradi: bilim darajasi (21%), ilmiy-tadqiqot ishidagi yutuqlar (19%), ijodiy tadbirlar, o'quv



tanlovlari, fan olimpiadalari va boshqalardagi ishtiroki (17%), kasbiy faoliyatdagi qobiliyatlarning namoyon bo'lishi. ishlab chiqarish amaliyoti (16%), ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish (11%).

So'rovda qatnashgan talabalarning 66 % da o'z-o'zini baholash natijalari joriy, oraliq va yakuniy nazoratlardagi javoblari va sinoa daqtarchasidagi baholarga mos keladi. Talabalar oliy ta'lim muassasi o'quv jarayonida kompetentli yondashuvni amalga oshirishda umummadaniy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirishda o'zini o'zi baholash va hamkorlikda baholashning rolini oshirish uchun muhim deb bilishadi. O'qituvchilar ham, tahlil oluvchilar talabalarni o'zini o'zi baholash va hamkorlikda baholashga o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish muhimligini ta'kidlashadi: interfaol texnologiyalar (munozaralar, bahs-munozaralar, o'quv konferentsiyalari, keyslar tahlili, ishbilarmonlik o'yinlari); pedagogik amaliyot natijalari bo'yicha pedagogik mahorat tanlovlarida shaxsiy va kasbiy sifatlar ranjirokasi; talabalarning o'quv, bilish, dizayn va ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash (insholar, ijtimoiy-pedagogik loyihalar, ilmiy ma'ruzalar va taqdimotlar), retsenziyalar va boshqalar. Bo'lajak o'qituvchilarning o'zini o'zi baholash va hamkorlikda baholash faoliyatiga jalb etish talabalarni rivojlanishning ijobiy natijalarini, shuningdek, bilish va kelajakdagi kasbiy faoliyatidagi muammolar, xatarlar va qiyinchiliklarni aniqlashni o'rgatishga imkon beradi. Aynan shu narsa, oliy ta'lim natijalarini o'quv jarayonini boshqarish samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi va talabalarning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi sifatlarini belgilovchi axborotli jarayoni sifatida baholashda mazmun tashkil etuvchi diskursni keltirib chiqaradi. O'qituvchi va talabalarning tizimli faoliyatli va kompetentli yondashuvlarni amalga oshirish kontekstida ishlashga tayyorlik darajasi va munosabatini o'rganish oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoni natijalarini pedagogik baholash tartibini hamda yangi ta'lim natijalarni baholash mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy metodologik ta'minotini asoslash uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Bularning barchasi, turli xil baholash texnologiyalarini qo'llash algoritmini asoslash va ishlab chiqish, oliy ta'lim



muassasasi o'quv jarayoning yangi natijalarini samarali va ob'ektiv baholash printsiplari, qoidalari, shartlari, texnologiyalari, shuningdek turli xil shakllari uchun nazorat va o'lchash materiallarini loyihalash va eksperimental tekshirishni asoslab beradigan keyingi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlashtirishga imkon berdi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik baholash mexanizmlarini amalga oshirishga tayyorlik darajasini o'rganish zamonaviy oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayoniga ularning turli shakllari va turlarini joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – T.: O'zbekiston, 1999. – 30 b.
2. Djuraeva B.R. Formirovanie pedagogicheskoy kul'tury u budushix uchiteley v protsesse professional'noy podgotovki pri izuchenii distsiplin pedagogicheskogo tsikla: Avtoref. diss. ... kand.ped.nauk.–Tashkent, 2002. – 21 s.
3. Jalilova S. Formirovka professional'noy napravlenosti studentov. T.:Universitet, 2009.–93 s.
4. Zagvyazinskiy V.I. Pedagogicheskoe tvorchestvo uchitelya. – M.: Pedagogika, 1997. – 160s.
5. Zair-Bek E.S. Teoreticheskie osnovy obucheniya pedagogicheskomu proektirovaniyu: Dis. ... d-ra ped. nauk. – SPb., 1995. – 410 s.;
6. Isyanov R.G. Klasternyy podxod v formirovanii modul'noy kompetentnosti prepodavateley vysshix obrazovatel'nyx uchrejdeniy. – Tashkent: TGPU, 2014. –